

9-fevral - Alisher Navoiy tavallud topgan kun  
Kishiga necha kelsa mushkul hol,  
Hikmat-u aql anga erur halol.



Navoiyning o'lmas asarlaridagi yurt tinchligi va osoyishtaligi, xalqlar va millatlar o'rtasidagi do'stlikni ko'klarga ko'taradigan, bu g'oyalarni ustuvor insoniy qadriyatlar sifatida olg'a suradigan fikr va qarashlari biz uchun, ayniqsa, qimmatlidir.

Islom KARIMOV

*Izladim Hazrat Navoiydan navo,  
Baytlarin qalbinga aylab jobajo.*



Alisher Navoiy  
1441-1501

Alisher Navoiy (1441-1501) Xirat shahrida tug'ilgan. U o'zbek xalqining buyuk mutafakkiri, shoiri, davlat arbobi bo'lib, ilmiy, adbiy va ijtimoiy hayotda katta hissa qo'shgan.

*Kezib ot ustina olamni hayron aylagan Bobur,  
Yurak devonida borliqni bo'ston aylagan Bobur.*

# SO'N MAS QUYOSH TAROVATI

Buyuk bobokalonimizning boy ijodiy merosiga ijod ahli hamisha tashnalik bilan murojaat qilib, uning betakror yog'dusidan bahramand bo'lib keladi. Ayniqsa, Istiqlolga erishgach, buyuk allomaga bo'lgan cheksiz ehtirom yuksak darajaga ko'tarildi. Alisher Navoiy hazratlarining tavallud ayyomi arafasida mumtoz adabiyotimizning bilimdonlaridan biri bo'lgan Olimjon DAVLATOV bilan suhbatda bo'ldik.

– Navoiy bobomizning hayoti barchamiz uchun ibratli, albatta. Ayniqsa, millat taraqqiyoti yo'lidagi bunyodkorlik ishlari tahsinga loyiqdir.

– Hazrat Alisher Navoiyning bunyodkorligi haqida gap ketganda, biz eng avvalo, bu zot tomonidan yaratilgan bebaho ma'naviy boyliklar – to'rt devondan iborat «Xazoyin ul-maoniyy», bezavol «Xamsa», «Lison ut-tayr» dostoni, «Nasoyim ul-muhabbat» va «Majolis ul-nafois» tazkiralari kabi 32 ta ijod namunasini ko'z oldimizga keltiramiz.

Bilamizki, Hazrat Navoiy faqat betakror shoirgina emas, balki ma'naviy murabbiy va rahnamo, yoshlarning homiysi ham bo'lgan. Zayniddin Mahmud Vosifiyda keltirilishicha, Navoiyning suhbatdoshlari va maslakdoshlarining asosiy vazifasi yosh iste'dodlarni izlab topish va ularni buyuk shoir huzuriga olib kelish edi. Bobomizning bevosita rahnamoligi tufayli yuzlab yoshlar o'z iste'dodini kamol toptirib, o'zlarini ham ustodlik darajasiga yetganlar. Zamondoshlari tomonidan bitilgan 53 ta asar

bevosita Mir Alisher Navoiyga bag'ishlangan.

– Navoiy bobomizning el-ulus farovonligi yo'lida qilgan xizmatlari haqida ham to'xtalsangiz.

– Tarixchi Xondamirning guvohlik berishicha, bevosita Hazrat Navoiyning tashabbusi bilan 12 xonaqoh, 53 rabot, 20 hovuz, 10 ga yaqin hammom bunyod etilgan. Navoiy asos solgan madrasalarda

zamonning eng ko'zga ko'ringan olimlari mudarrislik etib, talabalar idror (stipendiya) bilan ta'minlangan.

– Ulug' shoirimizning Vatanga sodiqlik, uning xizmatiga hamisha kamarbasta bo'lish kabi fazilatleri barchamiz uchun o'rnak, shunda emasmi?

– Milliy mafkuramizning asosi bo'lmish komil inson g'oyasi, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi g'oyalari – barcha-barchasi ulug' mutafakkir shoirimizning ijodida baland pardalarda tarannum etilgan hamda tiriklikning mazmuni – maslagiga aylangan. Shundan kelib chiqqan holda, ushbu ezgu g'oyalarni amalda tatbiq etib, o'zining ma'naviy olamini shu asosda qurayotgan har bir vatandoshimizni Navoiyning haqiqiy vorisi, deb bema'lol ayta olamiz. Zotan, Navoiyni anglash o'zlikka qaytish demakdir.

– Samimiy muloqot uchun tashakkur!

Suhbatdoshi  
Yusuf ABDULLAYEV



## IZLADIM HAZRAT NAVOIYDAN NAVO

Aziz o'quvchi! Xalqda «Bola boshidan» degan maqol bor. Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy adabiyot olamiga bolaligidan mehr qo'yganligi bois u ijodning yuksak cho'qqilariga ancha erta ko'tarilgandi. U o'zining:

*Orazin yopqoch ko'zimdin sochilur har lahza yosh,  
Bo'ylakim paydo bo'lur yulduz nihon bo'lg'ach quyosh...*

bayti bilan Lutfiy hazratlarining hayratini oshirgan, to'qqiz-o'n yoshli Alisherbekning allaqachon kattakon shoirga aylanib qolganini his etamiz. Bobomiz o'z hayotiy tajribalaridan kelib chiqqan holda:

*Yoshlikda yig' ilm ganjini,  
Qarilikka sarf qilg'il ani.*

Ushbu bayt Alisherbekning ilm ganjini yoshlik chog'idayoq yig'ganiga guvohlik beradi. Sizning ilmga chanqoq qalbingiz bilim egallashga qanchalar moyilligini inobatga olgan holda, aytmog'chi bo'lganimiz, ko'proq o'qib o'rganishingiz, ayniqsa, bobokalonimiz g'azaliyotidan bahramand bo'lishga oshiqish zavqi ko'nglingizni hech qachon tark etmasin.

*Izladim Hazrat Navoiydan navo,  
Pandlarin qalbinga aylab jobajo.*

*Dardlarimni qoralab chiqqan kunim,  
Oy mening xonamga to'ldirgay ziyo.*

*Misli Farhoddek erurman sarbaland,  
Purviqor tog'larga qilsam iltijo.*

*Men hayot devonini yozmoqchiman,  
Unda Majnun bo'lmagay yordan judo.*

*Hayratimni keltirar har bitta bayt,  
So'z javohirdir terib bo'lmas ado.*

*Sen g'azal sultonidan Axtamqli,  
Beshta dostonin o'qib olgin duo.*

AXTAMQLI

## G'AZAL BO'STONINING GULTOJI

Alisher Navoiy ijodidagi muhim va asosiy g'oyalardan biri insonni ulug'lashdir. Yana, shoirning har bir asarida yaxshilik, ezgulik, halollik, poklik, saxiylik, saxovatpeshalik kabi qadriyatlar o'z ifodasini topgan.



Masalan, uning «Hayrat ul-abror» asarida insonni barchadan ulug' va sharaffli, shuningdek, komil inson, ya'ni koinot gulshanining gultoji bo'lish uchun har bir kishida imkoniyat borligi haqida mufassal bayon etilgan.

Navoiy bobomizning «Xazoyin ul-maoniyy» asarida esa har birimizning umr bo'yi xalq, odamlar xizmatida bo'lishimiz, ularning og'irini yengil qilishimiz lozimligi kabi ulug' g'oyalar ilgari surilgan.

*Olam ahli, bilingizkim, ish emas dushmanlig',  
Yor o'lung bir-biringizgaki, erur yorlig' ish...*

degan misralarini har birimiz yoddan bilamiz. Ya'ni, Hazrat odamlar o'rtasida tinchlik va osoyishtalik hukm surishi uchun ular dushmanlik yo'lidan voz kechishi darkor, dushmanlik ish emas, buning o'rni ular bir-biriga do'st tutinishi lozim, chin do'stlik haqiqiy ish hisoblanadi, deya lutf qiladilar.

Yoki mana bu misralarni o'qib ko'raylik:

*Naf'ing agar xalqqa beshak durur,  
Bilki bu na'f o'zingga ko'prak durur.*

Daho shoirimiz: «Agar xalqingga biron foydang tegsa, undan o'zingga ham ko'proq naf bo'ladi», deydi.

Yusufjon HAMDAMOV,  
O'zMU dotsenti

**14-fevral – Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud topgan kun**

## NAVOIYGA BITILGAN MAKTUB

Assalomu alaykum, aziz bobojon! Siz mo'tabar zot haqida aqlimni taniy boshlaganimdan buyon bilaman.

Mana, 5-sinfga o'tib, Siz to'g'ringizda ancha-muncha ma'lumotga ega bo'ldim va nurliy siyomgizni xayolan tasavvur etdim.

Adabiyot darsligidagi Mirkarim Osimning «Zulmat ichra nur» hikoyasini o'qib, bolalik chog'ingizni ko'rgandek bo'laman. O'qituvchimiz ham yoshligingizdan kitobga mehringiz bo'lakcha bo'lgani haqida aytib berdi. Ayniqsa, shoh asaringiz – «Xamsa» bilan o'zingizga haykal qo'yganingizni faxr bilan so'zladilar.

Sizning «Kabutar», «Sher bilan durroj» nomli hikoyalaringizni, «Yolg'onchi cho'pon» she'ringizni va qator ruboiylaringizni yod olganman.

Bobojon, Siz bir umr orzu qilgan, komil insonlar bizning zamonamizda yashamoqda, desam, xato bo'lmas. Chunki elparvar insonlarning mehnati, kurashi tufayli mustaqil yurtida yashayapmiz. Mamlakatimizda biz yoshlarning bilim olishimiz uchun barcha sharoitlar yaratilgan.


Siz kabi ulug' ajdodlarning adabiy merosini o'rganish bizning asosiy vazifalarimizdir.

**Guljahon BAXTIYOROVA,**  
Buxoro viloyati, Shofirkon tumanidagi  
48-umumta'lim maktabining 5-sinf  
o'quvchisi

# TOJ MAHAL

## HAQIDA BILASIZMI?

Dunyo mo'jzalarini haqida gap ketganda, ba'zilar Misr ehromlari haqida to'lib-toshsa, ko'pchilik bugungi kungacha dunyo ahlini hayratga solib kelayotgan Toj Mahalni ta'riflashadi.



Hindistonga sayohatchilarni chorlovchi mazkur yodgorlik Agra shahrida bunyod etilgan bo'lib, uning qurilishida Movarounnahr va Xurosonning 22 mingdan ziyod ustalari mehnat qilishgan. Og'ir ishlarni bajarishda esa mingdan ortiq fildan foydalanilgan. Shoh Jahonning suyuqlik zavjasi Mumtoz Mahal Begim xotirasiga atab qurilgan bu san'at asari kun davomida uch xil rang: saharda pushti, kunduzi oq, kechasi oy shu'lasida rang-barang tovlanadi.

Toj Mahalda barcha narsa simmetrik qilib qurilgan. Uning mo'jizaviyligi shundaki, bino ichidagi hammom bitta sham bilan isitilgan. Olimlar bu sirni ochish uchun ko'p yillar mobaynida tadqiqot o'tkazib, hammom qozonxonasining tepa qismi, atrofi, devorlari simmetrik

ravishda bo'lgan yorug'likni o'ziga qabul qilib, uni issiqlik energiyasiga aylantirib beradigan kuchli quvvatga ega bo'lgan oynavand linza moslamalaridan tashkil topganligini, linzalarning joylashtirilishidagi mutanosiblik hatto bir millimetrga ham farq qilmasligini aniqlaganlar. Yorug'lik to'qqiz karra bo'yicha sinib tushib, geometrik progressiya shaklida to'qqiz marta to'qqiz karra to'qqizga ko'paytirish quvvatiga ega bo'lgan, bitta shamning yorug'ligi natijasida 80-1000 Selsiy issiqlik darajasini bergan. Inglizlar Hindistonni istilo qilgan davrlarda bu sirni ochish maqsadida ushbu oynalarni va g'ishtlarni alohida-alohida ajratib olganlar, natijada qayta joyiga qo'yilganda isitish quvvati yo'qolgan va o'z holiga qaytmagan.

**Ma'mura AHMEDOVA,**  
Borovskiy nomidagi Toshkent tibbiyot kolleji  
o'qituvchisi, Zarnigor MUSAYEVA

Ma'lumki, Prezidentimizning 1998-yilda qabul qilingan «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoniga asosan, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyidagi ishlar yangicha tus oldi.

O'zbek milliy adabiyotining eng nodir asarlari o'rin olgan ma'rifat maskanida Navoiy davri badiiyati, XV–XX asrlardagi o'zbek adabiyoti tarixi, yaqin o'tmish va hozirgi kun adabiyoti bilan bog'liq qo'lyozmalar, turli hujjat, rasmlar, xotiralarga keng o'rin berilgan. Muzey ko'rgazma zallarida 25 mingdan ortiq tasviriy va o'ymakorlik san'at asarlari, portretlar, noyob arxeologik yodgorliklar, xalq

**Yunusobod tumanidagi 272-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshchiligida 1–2-sinf o'quvchilari bilan noan'anaviy dars o'tdik.**

Dars Alisher Navoiy davlat muzeyida bo'lib o'tdi. O'quvchilar u yerda nafaqat Alisher Navoiy, balki Zahiriddin Muhammad Bobur, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek ijodi bilan ham yaqindan tanishdilar. Ayniqsa, Alisher Navoiyning ma'naviy meros sifatida qoldirilgan 29

amaliy san'ati namunalari mujassam.

Navoiy bilan bog'liq barcha davrlarga tegishli eksponatlar mavjud. 1469-yili Hirotda tuzilgan «Badoye' ul-bidoya» devoni, «Xazoyin ul-ma'noiy»ning nodir qo'lyozmalari va shoir asarlarining 1960-yillarda chop etilgan 15 jildlik

## MUZEYDA O'TILGAN DARS



o'zbekcha va 10 tomlik ruscha nashrlari mavjud.

– Bizning Toshkent pedagogika kollejida ham she'riyat mulkining sultoni Hazrat Navoiy tavalludiga bag'ishlab tadbirlar bo'lib o'tmoqda, – deydi kollejning 1-bosqich o'quvchisi Zarina Ahmedova. – Reja asosida ustozimiz Zuhra opa Umarova bilan sayohat darsimizni o'tkazish uchun ushbu ma'naviyat maskaniga keldik. Guruh rahbarimiz yordamida bilimimizni yanada mustahkamladik, ko'plab qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'ldik. Ma'naviyat maskanidan olam-olam taassurotlar oldik. Buyuk bobokalonimiz asarlaridagi har bir misradagi ma'noni anglashga harakat qilish mas'uliyati qalbimizni chulg'ab oldi.

Adabiyot muzeyi shu kunlarda yanada gavjum. Muzeydagi bo'limlardan o'rin olgan qo'lyozma, surat va boshqa eksponatlar milliy adabiyotimizning tarixi va bugungi kunini anglashimizda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Nodira NAZAROVA**  
ZUBAYDA olgan suratlar

ta eng yirik qo'lyozmalari va ularga bag'ishlab chizilgan san'at asarlari o'quvchilarni hayratga soldi.

Navoiy bir ummon. Mana, VI asrdiki, shu ummondan biz dur-u gavharlar teramiz, lekin bu javohirlar tugamaydi. Ana shu bebaho boyligimizni bugun har bir o'zbek farzandi his qilishi, undan to'liq bahramand bo'lishi lozim.

Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, ona tiliga muhabbat

uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg'usi ham bizning ong-u shuurimiz, yuragimizga avvalo, Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko'p bahramand etsak, milliy ma'naviyatimizni shuncha yuksaltirgan bo'lamiz.

**Dilorom MO'MINOVA,**  
boshlang'ich sinf  
o'qituvchisi



## MA'NAVIYAT BULOG'I

**Alisher Navoiy! Bu nomni eshitgan har bir inson ko'z o'ngida buyuk siymo gavdalanadi.**

U inson qalbining quvonch-u qayg'usini, hayotning tub ma'nosini hamda ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurashning mazmun-mohiyatini teran ifoda eta olgan. Ona tilimizga bo'lgan cheksiz muhabbat, uning beqiyos boyligi va go'zalligini anglash tuyg'usi ham mening ong-u shuurimga, Navoiy bobomning asarlari bilan kirib keldi.

Alisher Navoiy millatimizning g'ururi, shon-shuhratini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir. O'z she'r'lari bilan insonlarni ezgulikka, donolikka chorlagan bu ulug' zot muomala odobi haqida ham mulohaza yuritganlar. Navoiyning tafakkuri baland cho'qqilardan ham yuksak. Biz yoshlar Navoiy bobomizning merosi orqali dunyodagi eng sof tuyg'ular nima ekanligini bilishimiz mumkin.

**Sabina HABIBULLAYEVA,**  
Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi  
4-umumta'lim maktabining 8-«B» sinf o'quvchisi

*Hech e'tibor berganmisiz, sinfdoshlar orasida doim ajralib turadiganlari bo'ladi. Ular bilim olish, sport, jamoat ishlarida faolliklari tufayli tezda ko'pchilikning nazariga tushirladi.*

## BEG'UBOR OLAMGA BAXSHIDA UMR



Bugun ana shunday sobiq o'quvchilardan biri haqida hikoya qilgimiz keldi. Oliy o'quv yurtida talabalarga saboq beruvchi Muhammadjon Hotamov va Farizaxon Rustamova xonadonida navbatdagi farzand, shiringina qizaloq dunyoga keldi. Qizcha poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 124-umumta'lim maktabida a'lo baholarga o'qib, uni oltin medal bilan bitirdi. Shu yili Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutiga o'qishga kirdi, vaqti kelib uni ham imtiyozli diplom bilan tamomlashga muvaffaq bo'ldi. Ko'p yillar ta'lim maskanlarida yosh avlod tarbiyasi bilan shug'ullandi. Adabiyotga, ijodga bo'lgan havasi uni 2001-yilda «Kitob dunyosi» gazetasi sari yetakladi. 2007-yildan boshlab «Tong yulduzi» gazetasida mehnat faoliyatini davom ettirib kelmoqda.

Hikoyamiz qahramoni bilan qiziqib qoldingiz, shunday emasmi? Bugun gazetamiz xodimi dolzarb mavzulardagi maqolalari, bir-biridan qiziqarli boshqotirmalari bilan ko'pchilikning sevimli ijodkorigizga aylangan Dilorom Hotamova haqida so'zlagimiz keldi. Chunki u kishining ishga munosabati, topshirilgan vazifani mas'uliyat bilan bajarishi barchamiz uchun ibratdir. Ko'p yillik mehnat tajribasiga ega opa o'z bilganlarini hamkasblari bilan bo'lishishdan charchamaydi. Jamoliddin Abdullayev, Shavkat Kazakbayev, Xosiyat Hasanova va Shahnoza Mamajonova kabi yosh ijodkorlarga ustoz sifatida vaqt ajratishdan erinmaydi.

Mana, Dilorom opaning bolalik dunyosidan xabardor bo'ldik. Buning ham o'ziga yarasha sabablari bor. Bir zum ko'rinmay qolsalar, darrov o'rni bilinadigan bu hamkasbimiz 55 yoshni qarshilamoqda. Tahririyatimiz xodimlari nomidan ularni kutlug' sana bilan qutlaymiz. Qolgan gaplarni esa sizga qoldirdik.

**«Tong yulduzi» jamoasi**

### Asrlardan oshgan asarlar

## YURT SOG'INCHI

**Navbatdagi adabiyot darsi buyuk bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodiga bag'ishlandi.**

Ustozimiz shoh va shoir haqida kitobdan tashqari ma'lumotlar yig'ishimizni, ular asosida referat tayyorlashimizni aytdi. Men ma'lumotlar qidirib, kutubxonaga kirdim. U yerdan shoir hayotiga oid turli ma'lumotlar topdim. Manbalarga ko'ra, Bobur Mirzo juda ko'p qiyinchiliklarga duch kelgan ekan. Qonli to'qnashuvlar, tinimsiz mashaqqatlar, jang-u jadallarga bardosh bergan Bobur Hindistonga yurish qiladi va uzoq yillar mamlakatni boshqaradi. Hindistonda yashagan chog'ida dehqonlarga qovun yetishtirishini buyuradi, ammo undan bolaligida yegan mazali qovunlar ta'mini tuymaydi. Dehqonlar shoh ko'ngliga yo'l topolmaganlaridan xijolat chekib, bir kuni uning huzuriga qovun keltirishadi. Uni tanovul qilarkan, ko'zlaridan shashqator yosh oqadi va bu qovun Andijondan keltirilganligini sezadi. Bundan uning mulozimlari hayratga tushishadi.

Shoirning bitgan g'azallari dillarga malhamdir. U hech qachon o'z mazmun-mohiyatini yo'qotmaydi.

**Odina SAHOBIDDIN qizi,**  
Yunusobod tumanidagi 96-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi

## MAFTUNKOR SHAXS

**Tarixchilarning yozishicha, Bobur bobokaloni Amir Temurdek bunyodkorlik ishlariga katta e'tibor bilan qaragan.**

Bobur bilimga chanoq, iste'dodli shoir bo'lganligi uchun ham ilm olishga intilganlarga hamisha otalaracha g'amxo'rlik qilgan. Uning «Boburnoma», «Muxtasar», «Mubayyin», «Turkiy devon» asarlari mashhur.

«Boburnoma» asari Movarounnahr, Xuroson, Afg'oniston, Eron, Hindiston xalqlari tarixi, madaniyati, geografiyasi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Asar 1493–1529-yillar oralig'ida bo'lib o'tgan tarixiy voqealar haqida hikoya qiladi.

Manbalarda qayd etilishicha, u jismoniy jihatdan baquvvat bo'lgan ekanki, ikki qo'ltig'ida ikki odamni olib qal'a devori ustida mashq qilgan. Gulbadanbegim tomonidan yozilgan «Humoyunnoma» asarida otasi Bobur Mirzoning fazilatlarini batafsil tasvirlab berilgan. Ingliz tarixchisi S. Leyn Poul Boburni «Sharq tarixidagi eng maftunkor shaxs edi» deb ta'riflaydi.

Boburning xotirasini ulug'lash yo'lida katta ishlar amalga oshirildi. Chunonchi, Andijonda Bobur haykali o'rnatildi, ramziy qabr maqbarasi qurildi. «Bobur milliy bog'i» va shu bog' qoshida «Bobur va jahon adabiyoti» nomli muzey tashkil etildi.

**Gulzoda QO'SHOQOVA,**  
Farg'ona viloyatining Beshariq tumanidagi  
12-umumta'lim maktabi o'quvchisi

Kazakbayev, Xosiyat Hasanova va Shahnoza Mamajonova kabi yosh ijodkorlarga ustoz sifatida vaqt ajratishdan erinmaydi.

Mana, Dilorom opaning bolalik dunyosidan xabardor bo'ldik. Buning ham o'ziga yarasha sabablari bor. Bir zum ko'rinmay qolsalar, darrov o'rni bilinadigan bu hamkasbimiz 55 yoshni qarshilamoqda.

Tahririyatimiz xodimlari nomidan ularni kutlug' sana bilan qutlaymiz. Qolgan gaplarni esa sizga qoldirdik.

**«Tong yulduzi» jamoasi**



## SO'Z SAN'ATINING GULTOJI

**Kuni kecha Respublika bolalar kutubxonasida buyuk mutafakkir tavalludining 775 yilligiga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi.**

«So'z san'atining gultoji», deb nomlangan ushbu kechada navoiyshunos, adabiyotshunos olimlar, san'atkorlar, Yosh tomoshabinlar teatrlarining aktrisalari Shamsiqamar Mansurova, Farida Umarova, Hakima Otaxonova, Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashgan musiqa akademik litsey o'quvchilari hamda poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 255-umumta'lim maktabi o'quvchilari ishtirok etishdi. Kutubxonaning yetakchi xodimlari Nargiza Berdiyeva va Zarina Yuldashovalar faolligida tashkil etilgan tadbir davomida shoirning «Hamsa» asaridan sahnalashtirilgan sahna ko'rinishlari va umidli yosh xonandalar ishtirokida bayram dasturi namoyish etildi, barcha bolajonlarga sovg'alar ulashildi.

Bunday tadbirlarni o'tkazishdan asosiy maqsad, mamlakatimiz yoshlarini sog'lom va teran tafakkurli, puxta bilimli, yuksak ma'naviyatli shaxslar etib tarbiyalashdan iborat.

**J. ABDULLAYEV**




Lesson 73

«The level of Humility»

(Kamtarlik darajasi)

When Khusayn Bayqaro appointed Alisher Navoi as a sealman, he has the right to stamp on the top of the documents. But in comparison with Amir-officials who always quarreled with each other to stamp on the top of the documents but he stamped on the below of the documents. So nobody could stamp after him. Everybody pleased with his humility.



Babur is form of invaluable

(Bobur benazir siymo)

Zahir-ud-din Muhammad Babur was born in 1483, February 14, in Andijan. He was the fifth generation of Amir Temur. In 1494 when Babur was only 12 years old, he became a ruler.

The general amount of his poems is more than 400. 199 of them are written in such a style that is called «gazel» and 231 of them are «ruboi».

The Indian Munil'al wrote 6 novels about Baburids. In Uzbek literature such writers as P. Qodirov, Boyqobilov B, Sultonov H, devoted their novels and short stories and «doston» to Babur.

Also in the «Memoirs of Babur» or Baburnama described about on the political and military struggles of his time but also extensive descriptive section on the physical and human geography, the flora and fauna, nomads in their pastures and the architecture, music and Persian and Turkic literature patronized by the Timurids.




New words:

- To quarrel with – talashmoq.
- Sealman – muhrdor.
- Humility – kamtarlik.

Sarvinoz NAZAROVA, the first course pupil of 3rd lyceum by Uzbek State World Languages University

It is interesting (Bu qiziq)

- The first patent on ball pen was issued to John Loud in 1880.
- In 1564 the graphite pencil invented in England.
- The first rubber figured out by Charles Goodyear in 1839.
- In 1946 the first patent for pencil case was placed in the United States by Verona Pearl.
- If you go to Amsterdam the John Galliano team recommends to visit to the Tassen Museum of Bags and purses. There you can see the first wooden bags dating back to the 17 th century to the nylon rucksacks worn by today's teenagers.



Prepared by Dinora SHAKIROVA

True Or False?

- Most are orange.
- is brown and hot.
- The is big and purple.
- are red and sweet.
- I can make a white

Umida UMAROVA SHAHNOZA chizgan rasmlar

Find the odd word (Ortiqcha so'zni toping)


- Fourth, sixth, three, second, twelfth.
- Hospital, office, desk, farm, collage.
- History, school, literature, botany, handicrafts.
- Teacher, taxi-driver, secretary, brother, pupil.
- Difficult, boring, interesting, fun, straight.
- Square, round, curly, dark, head.

Kumush TURG'UNOVA, the pupil of school number 54 in Tashkent region, Urta Chirchik district

Plural or singular? (Ko'plikdami birlikda?)

Put the right answer:

- ... the shop open?
- My hands ... cold.
- My feet ... healthy.
- My nose ... red.
- Where ... my book?
- Where ... my pen?
- Your coat ... dirty.
- Mice ... small animals.



Aziza RASHIDOVA, the pupil of 8th form in school number 77 in Kashkadarya region, Dehqonobod district

Deer and hunter (Bug'u va ovchi)

One day deer was drinking water in the river and saw his reflection in the water and said - «Oh, I have beautiful horn. But I have not strong feet». After a while, hunter shot afire, the deer didn't know what to do.

He ran away with weak feet towards the jungle. But, it's horn clang on the bushes. Hunter caught the deer, than deer said angrily: «What a pity! We always complain about useful things, we take no notice, after knowing that they are beneficial but it will be late».

Moral is that we should appreciate things which we have and people to whom we rely on.



Translated by Madina HAMROYEVA, the pupil of school number 244, Yashnobod district

Riddles (Topishmoqlar)

Three lights with different colours, When you see the red you wait, In yellow you should be patient, And in green you may go ahead.

There are a lot of zebras in the city, But they are not in the zoo, What are these? Find quickly my friends.



**MEHRING QALBGA POYANDOZ**

Shu zaminda o'sib-ulg'aydim,  
Har qarichi men uchun aziz.  
Vatan tuyg'usini his etdim,  
Mo'tabardir bu yurt, shubhasiz.

Bobolardan qolgan boy meros,  
Topdi elda hurmat va e'zoz.  
Biz madhingni kuylab yashaymiz,  
Mehring qalbgay erur poyandoz.

To'liqinjon HAFIZOV,  
Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi 34-umumta'lim maktabi o'quvchisi

**BAXTIMIZ POSBONI**

Bu olamda umr o'tkinchi,  
Biroq bashar, tiriklik abad.  
Kimdir deydi dunyo o'tkinchi,  
Qalbimizda topilmaydi gard.

Tinchlik erur biz uchun shior,  
Vatan erur baxtning posboni.  
Ozod Vatan quchog'i aro,  
Yashnataylik nurlu dunyoni.

To'liqinjon ERGASHEV,  
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 17-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi



**NAVOIY BOBOM**

Besh doston qasrin bunyod aylagan,  
So'z bilan dillarni obod aylagan.  
Qullikdan millatni ozod aylagan,  
So'z mulkin sultoni Navoiy bobom.

She'riyat osmonin porloq yulduzi,  
Asrlar o'tsa ham o'chmaydi izi.  
Biz uchun hikmatdir aytgan har so'zi,  
Eng buyuk insondir Navoiy bobom.

Necha asr o'tdi yashaysiz hamon,  
She'riyat mulkida sultonsiz mudom.  
Sizni ardoqlagay hur O'zbekiston,  
Ko'ngliga erur xon Navoiy bobom.

Madinaxon HOSHIMOVA,  
Farg'ona viloyati, Qo'shtepa tumanidagi 2-IDUMI 7-sinf o'quvchisi



Tinch bo'lsin osmoning,  
ko'rkam zaminig,  
Oltin teng bo'lsin  
bebaho tuproq,  
Qalbidam sen uchun  
mehrim qatma-qat,  
Yurakda yashaysan  
yurtim toabad...

**TINCH BO'LSIN OSMONING...**



Ushbu misralar muallifi Qoraqalpog'iston Respublikasi, Beruniy tumanidagi 54-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Sarvinoz To'liyeva. U bilim mas-kanida tashkil qilingan «Orasta qizlar» va «Zulfiyaxonim qizlari» to'garagining faol a'zosi. Bo'sh vaqtlarida rasm chizish, to'qish bilan shug'ullanadi. Bundan tashqari, she'rlar yozib turadi. Ijod namunalari «Tong yulduzi», «Gulxan» va «Jetkinshek» kabi nashrlarda chop etib kelinmoqda.

Sarvinoz uchun o'tgan 2015-yil muvaffaqiyatlarga boy bo'ldi. Ko'plab tanlovlarda ishtirok etib, bilimni charxladi. Uning «Hurriyat qo'shig'i» nomli ilk she'rlar to'plami bosmadan chiqdi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi «Jetkinshek» bolalar gazetasida «Eng, eng, eng» hamda «Eng yaxshi she'rlar» tanlovi g'olibi, shuningdek, «Kamolot» malikasi, «Eng faol «Kamolot» a'zosi», «Zakovat» tanlovlarida qatnashib, faxri o'rinlarni qo'lga kiritdi.

*Kiprigim soyasida asrayman, Vatan, Yuragim to'rida yashaysan, Vatan...*  
deya o'z yurtiga bo'lgan mehmuhabbati she'rlarida aks etgan Sarvinozga ijodiy barkamollik tilaymiz.


Shavkat KAZAKBAYEV

**RASMLAR KO'RGAZMASI**

Bolalar, To'maris momimiz haqidagi afsonani barchangiz yaxshi bilasiz, shunday emasmiz? Undagi vatanparvarlik hissi barcha narsadan ustun ekanligi barchangizga ma'lum. Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumanidagi 68-umumta'lim maktabi o'quvchisi Qosimbek Ashirov chizgilarida To'maris momoni tasvirlashga urinibdi.



«To'maris momo»



«Mening shahrim»

Shahzod ISMATULLAYEV, 7-«E» sinf o'quvchisi




«Manzara»

Sohiba O'RINBOYEVA, 7-«A» sinf o'quvchisi




«Yurtimda qish»

Shahrizoda RIXSIBOYEVA, Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumanidagi 12-umumta'lim maktabining 6-«B» sinf o'quvchisi



Qadim zamonlarda ko'm-ko'k bulutlar ortida ranglar shahri bo'lgan ekan. U yerda oq, pushti, olovrang, yashil, ko'k, uning ukasi havorang, sariq hamda qizil ranglar tinch va totuv yashar ekan. Bir kuni Laylakvoy Quyoshjondan sariq rangga kutilmagan xabar keltiribdi. Maktubda shunday deyilgan ekan: «Salom, qadrdon inim! Illimos, biz tomonlarga bir kelib ketsangiz, nurlarim qolmay, ahvolim biroz tang bo'lib qoldi. Sizni intiqlik bilan kutaman».

Sariq rang xabarni olgan zahoti Quyoshjonning oldiga ketibdi. Qolgan do'stlari esa tabiatga o'z go'zalligini ulashishda davom etibdi. Shu payt qayoqdandir ko'k rangni opichlagan Turnavoy uchib kelibdi. Do'stining kayfiyati yo'qligini ko'rgan yashil rang undan hol-ahvol so'rabdi. Gapirishga madori qolmagan ko'k rang qo'li bilan osmonni ko'rsatibdi. Yashil rang yuqoriga qaragan zahoti uni qora bulutlar olib ketibdi. Qolgan og'a-inilar qo'rquvdan har tomonga



**RANGLAR SHAHRI**

(Ertak)

qocha boshlabdi. Buning befoyda ekanligini tushungan qizil rang esa do'stlarini dushman bilan jang qilishga chaqiribdi. Bu paytda sariq rang Quyoshjonning oldiga yetib boribdi. Shunda birdan ko'kda momaqaldiroq gumburlab, chaqmoq chaqdi. Sariq rang Quyoshjonning yelkasiga chiqib qarasa, qadrdon do'stlarini dushmanlar asirga olib ketishayotgan ekan. Shunda u kutilmaganda raqibga qarshi hujumga o'tibdi. Qo'lga xivich olib, qora bulutlarni savalay boshlabdi. Og'riq zarbidan bulutlar yig'lab-yig'lab, har tomonga sochilib ketibdi. Asirlikdan qutilgan ranglar xursandchilikdan kamalak hosil qilishibdi. Sariq rang ham Quyoshjonning yelkasidan tushib, kamalak orasiga qo'shilibdi.

Behzodjon HAMIDULLAYEV, poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 219-umumta'lim maktabining 5-«A» sinf o'quvchisi YOQUBBEK chizgan rasm

Alisher Navoiyning qalb daftarimizdan chuqur joy olgan hikmatli so'zlari, g'azal va ruboiylari, dostonlari qariyb olti asrdan buyon bebaho xazina sifatida alohida e'tirof etib kelinmoqda.



Yaqinda Yunusobod tumanidagi 274-umumta'lim maktabida ham «Alisher Navoiy – ma'naviyatimiz quyoshi» mavzusida haftalik bo'lib o'tdi. Unda o'quvchilar insholar tanlovida,

## MA'NAVİYATIMIZ QUYOSHI

g'azalxonlik kechalarida faol qatnashdilar.

Jumladan, Iroda Mahkamova rahbarligidagi 2-«B» sinf o'quvchilari tayyorlagan adabiy-musiqiy tadbir mazmundorligi, dilrabo qo'shiq va raqslarga boyligi bilan barchaga manzur bo'ldi. Muhammadzafar Najmiddinov, Davron Karimov, Rahmonbek Turg'unov kabi o'quvchilar



ijrosidagi «Yaxshidan bog' qoladi», «Tandir» kabi sahna ko'rinishlari mahorat bilan ijro etilgani kechaga tashrif buyurganlarda katta taassurot qoldirdi.

Maktabning 7-«B» sinf o'quvchilari Jasur Rashidov, Sardor Fozilov hamda Maftuna Mirhaydarova Bobur hayotiga oid ajoyib sahna ko'rinishlarini ijro etishdi.

Kechada faol qatnashgan o'quvchilarga Navoiy va Boburning asarlari hamda maqto'v yorliqlari topshirildi.

Jamoliddin ABDULLAYEV



## SABRINANING MAHORATI

Badiiy gimnastika – nafis sport turi. Qizlar qomatining to'g'ri shakllanishida muhim omildir.

Turli musobaqalarda sovrinli o'rinlarni egallab kelayotgan sportchilar safida Buxoro shahridagi «Nafis» sport majmuasi gimnastikachilarini ko'plab uchratamiz.

Hozirda shahardagi 39-umumta'lim maktabining 4-sinfida o'qiyotgan Sabrina Kamolova mazkur majmuaning faol tarbiyalanuvchilaridan biri. U uch yildan beri badiiy gimnastika sirlarini o'rganib kelmoqda. O'tgan yilda bo'lib o'tgan turnirlarda o'z mahoratini ko'rsata oldi. Jumladan,



sentyabr oyida Buxoro shahar birinchiligidagi 2006-yilda tug'ilgan sportchilar o'rtasida 1-, 23-noyabr kunlari Navoiy shahrida bo'lib o'tgan «Kuz qirolichasi» turnirida 3-o'rinni qo'lga kiritdi. Joriy yilda o'tkazilgan shahar musobaqasida 2004–2006-yilda tug'ilgan sportchi-qizlar o'rtasida 2-o'rinni egalladi.

– Sabrina a'lo o'qish bilan birga o'zining harakatchanligi bilan tarbiyalanuvchilar orasida ajralib turadi, – deydi murabbiy Umida Sapayeva. – Shogirdimning muvaffaqiyatlaridan quvonaman.

Sabrina ayni damda bo'lib o'tadigan Buxoro shahar birinchiligi sport musobaqasiga tayyorgarlik ko'rmoqda.

NURBEK

«Game», «Set», «Match»... Bu so'zlarni eshitishingiz bilan beixtiyor ko'z o'ngingizda minglab muxlislar qarshisida o'zaro bahs olib borayotgan ikki tennischining betakror xatti-harakatlari gavdalanadi. Ularning tezkor va shiddatli qarama-qarshiligi ishqibozlarga olam-olam zavq ulashadi.

## TEZKORLIK ANTANASI

Keyingi yillarda mamlakatimizda ham tennis sport turi yosh avlod o'rtasida tobora ommaviylashib bormoqda. Nigina Abduraimova, Sabina Sharipova, Jo'rabek Karimov, Temur Ismoilov kabi yosh iqtidor egalarining xalqaro tennis kortlarida qayd etayotgan yuqori natijalari so'zimiz isbotidir. Ayniqsa, bu yil «Katta dubulg'a» turkumiga kiruvchi «Australian open – 2016» musobaqasining o'smirlar o'rtasidagi yakkalik bahslarida Jo'rabek Karimovning final bosqichiga qadar yetib borgan ta'sirga loyiqdir.

Yaqinda Respublika Olimpiya zaxiralari tennis maktabida bolalar o'rtasida o'tkazilgan an'anaviy musobaqada ham ko'plab iste'dod egalari kashf etildi. Yosh bo'lishiga qaramay, turnir ishtirokchilarining ajoyib o'yinlari, tezkor harakatlari muxlis-umtaxassislarda katta taassurot qoldirdi.

Jumladan, 2003-yilda tug'ilgan va undan kichik bo'lgan yosh tennischilar bellashuvida Mohira Alimova Lutfiniso Ahmedovani 6:2, 6:2 hisobida taslim etdi. O'g'il bolalar bahsida esa Samandar Abdulmalikov raqibi Aziz Niyozovni 7:5, 6:2 natijasi bilan mag'lub etishning uddasidan chiqdi.

2000–2002-yillarda tug'ilganlar o'rtasidagi final uchrashuvlarida Azamat Luqmonov Olimjon Nabiye'vga hech qanday imkoniyat qoldirmadi va yakunda raqibini 6:1, 6:0 hisobida mag'lubiyatga uchratdi. Qizlar o'rtasidagi hal qiluvchi bahsda Valentina Shleyn raqibasi Elina Sharipovani 6:4, 6:3 hisobida taslim etdi.

Musobaqa g'oliblari tashkilotchilar tomonidan taqdirlandi.

S. TURSINOV



## USTOZ ISHONCHI

Bekzod Ahmedov Respublika Olimpiya zaxiralari kolleji o'quvchisi. Hozirda yunon-rum kurashi sir-asrorlarini o'rganayotgan o'quvchi bu yil 15 yoshga to'ladi.

Bekzodga bolaligidan belbog'li kurash bo'yicha ikki karra jahon chempioni bo'lgan otasi kabi kurashchi bo'lish orzusi tinchlik bermasdi. Bolakay kurash bilan shug'ullana boshladi va yetti yoshida ilk g'alabani qo'lga kiritdi. Olmaliqlik yosh sportchi

yaqinda Toshkent shahrida bo'lib o'tgan yoshlar o'rtasidagi xalqaro turnirda g'oliblikni qo'lga kiritdi. Qizig'i shundaki, murosasiz kechgan bellashuvlarda Bekzod raqiblarini muddatidan oldin mag'lub etdi.

– Bekzod o'ziga xos uslubga ega sportchi. Bu musobaqa jarayonida g'alabani qo'lga kiritishda qo'l keladi, – deydi murabbiy Ismat Jabborov. – Shogirdim yunon-rum kurashida ulkan marralarni zabt etishiga ishonaman.

Kurashchi Buenos-Ayresda o'tadigan o'smirlar Olimpiadasida ishtirok etish, 2018-yili o'tadigan jahon chempionatida yurtimiz sharafini munosib himoya qilishni maqsad qilgan. Bekzod Ahmedovning yuksak orzulari ro'yobga chiqishiga tilakdoshmiz.

Shukrulla G'ULOMOV



## SIZNING KITOB JAVONINGIZGA

«O'ZBEKISTON», CHO'L PON NOMIDAGI NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYLARI TOMONIDAN CHOP ETILGAN YANGI KITOBLAR:

### ERTAKLAR OLAMIGA SAYOHAT

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi tomonidan chop etilgan ushbu ertaklar to'plami olmon xalq og'zaki ijodi mahsulidir. Ularni mashhur aka-uka Yakob va Vilgelm Grimmlar to'plab, XIX asrda Germaniyada nashr qildirgan. Shundan so'ng bu kitobni dunyoning ko'plab xalqlari o'z tillariga tarjima qildilar. Bolajonlarning talab va istaklarini inobatga olib, ushbu to'plamdagi ertaklar saralangan holda yurtimizda ham chop etildi.



### BILIMINGIZNI BOYITADI

Ertak muxlisleri bo'lgan kitobxonlar talabini inobatga olib, Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi ushbu kitobni chop etdi. Undagi tarjimon-muallif Abdurahmon Akbar tomonidan tayyorlangan ertaklar, quvnoq she'r va topishmoqlar, she'riy hikoyalar o'quvchiga xushkayfiyat bag'ishlab, ma'naviy olamini boyitadi.


S. TURSINOV tayyorladi



BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

### «N» HARFLI KROSSVORD

Aziz o'quvchilar! Ushbu krossvordda berilgan barcha so'zlar



«N» harfi bilan boshlanib, «n» bilan tugaydi. Marhamat, zehningizni sinab ko'ring.

1. Quvvatsiz, zaif.
2. Respublikamiz viloyatlaridan biri.
3. Gul nomi.
4. Shoti.
5. Mo'ljal.
6. Ravshan, yorqin.
7. Och binafsha rang.
8. Dengiz hukmdori.
9. Limon ta'mi.
10. Boksdagi holat.
11. Dasturxonimiz ko'rki.

Dilorom HOTAMOVA tuzdi

### ILHOMBAXSH RANGLAR

Tengdoshingiz Odiljon Allanazarov Surxondaryo viloyati, Uzun tumanidagi 9-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi.



U 2014-yildan boshlab tumandagi 3-bolalar musiqa va san'at maktabining tasviriy san'at sinfidagi tahsil olmoqda. Odiljonning chizgan rasmlariga qarab, uning yuksak iste'dod sohibi ekaniga amin bo'ldik.

Bu iqtidorli o'quvchi rasm chizish bilan birga maktabda o'tkaziladigan har

bir tadbirda faol ishtirok etishi bilan tengdoshlari orasida alohida ajralib turadi.

U doimo ustozlarining o'g'itlariga quloq tutib, o'z ustida tinimsiz ishlaydi.

Odiljon ranglar uyg'unligini yaxshi bilganligi bois, portret yo'nalishida ko'proq rasm chizadi. Taniqli rassomlarning rasmlarini kuzatib, ularning sir-sinoatini o'rganishdan tolmaydi.

Uning o'zini kattalardek tutishi, teran fikrlashi tengdoshlariga o'rnak bo'lmoqda. Odiljonning bizga yo'llagan ijod namunalariidan buyuk sarkarda Amir Temur portreti e'tiborimizni o'ziga tortdi. Marhamat, siz ham ko'rib, baho bering.

Manzura UBAYDULLAYEVA

### «IKKI» BAHO OLMAYMAN

Darsda ikki olaman,  
Shunga urishar dadam.  
Bilimli bo'l, dono bo'l,  
Deya qo'ymaydi har dam.

Doim doskaga chiqsam,  
Bilganim yodda qolmas.  
Netayin ustozlarim,  
Ikki qo'yishdan tolmas.



Oyi, dada ertaga,  
Men maktabga bormayman.  
O'ylab ko'rdim o'shanda,  
Boshqa ikki olmayman.

Zarnigor JO'RAYEVA,  
Farg'ona viloyati,  
O'zbekiston tumanidagi  
38-umumta'lim maktabining  
9-sinf o'quvchisi

### TEST

#### ADABIYOT FANIDAN

1. Qaysi qatorda Alisher Navoiyning dastlabki devoni nomi ko'rsatilgan?

- A) «G'aroyib us-sig'ar», «Navodir un-nihoya»;
- B) «Badoe' ul-bidoya», «Navodir un-nihoya»;
- D) «Badoe' ul-bidoya», «Navodir ush-shabob»;
- E) «G'aroyib us-sig'ar», «Navodir ush-shabob».

2. Alisher Navoiy o'zining «Mahbub ul-qulub» asarida oliy himmat odamni nimaga qiyoslaydi?

- A) Charaqlagan quyoshga;
- B) Yuksak qoyaga;
- D) Mevazor bog'ga;
- E) Balandparvoz lochinga.

Xosiyat HASANOVA

### HAYVONOT OLAMI ALIFBOSI

Bahrom AKBAROV

«A»da Ayyiq –  
Maymoqvoy  
Bolari holiga voy.



«B»da Bo'ri, Bo'rsiq bor,  
Burgut esa hukmdor.

«D»da Delfin dengizda,  
Suzishda u tengsiz-da.



«F»da Filni ko'rsangiz,  
Qulog'idan cho'zmangiz.

(Davomi bor)

8-fevral 2016

#### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati  
Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga  
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir  
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida  
0208-raqam bilan 2007-yil  
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:  
Omonulla YUNUSOV,  
Dilshod KENJAYEV,  
Bahodir G'ANIYEV,  
Svetlana INOMOVA,  
Murtazo SULTONOV,  
Zoir ISAJONOV,  
Vahobjon RAJAPOV,  
Zikrilla TESHABOYEV,  
Feruza JALILOVA,  
Feruz MATYOQUBOV  
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir  
Axtamqul KARIMOV  
Rassom  
Feruzbek KAMOL o'g'li  
Sahifalovchi-dizayner  
Shaxobiddin MAXMADIYEV

Manzili: Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail:  
info@tongyulduzi.uz  
www.tongyulduzi.uz

Tel./faks: 244-63-08  
Tel./faks:  
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi.  
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.  
Haftaning dushanba kuni chiqadi.  
Shakli A-3, 2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092  
Adadi – 49119  
Buyurtma – S-5097